

Dilafuz M. TURDIYEVA,
*International islamic academy of Uzbekistan,
doctor of philosophy PhD,
acting associate professor of the department
«UNESCO Chair in the Comparative Study of
World Religions and Religious Studies».*
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: d.turdiyeva@iiu.uz

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-2/9

**MALAYZIYADA DINIY-DUNYOVIY
MUVOZANATNI SAQLASHDA
DAVLATNING O'RNI**

**THE ROLE OF THE STATE IN
ENSURING RELIGIOUS-SECULAR
BALANCE IN MALAYSIA**

**РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В
ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕЛИГИОЗНО-
СВЕТСКОГО БАЛАНСА В МАЛАЙЗИИ**

KIRISH

Hozirgi kunda jahon mamlakatlari rivojida, davlat va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning shakllanishida diniy omilning ta'siri tobora ortib bormoqda. Bu jarayonlarni biz Afrika va Yevrosiyo qit'alarida kuzatishimiz mumkin. Xususan, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida – tez rivojlanayotgan musulmon mamlakatlarida kuzatilmoqda. Bunday davlatlar qatoriga Malayziyani kiritish mumkin. Malayziyadagi diniy omilning o'ziga xosligi – islom dini mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning shakllanishida muhim rol o'ynashida ko'rinadi. Davlat Konstitutsiyasida islomga rasmiy din maqomi berilgan bo'lib, jamiyatda har bir soha islom tamoyillari asosida boshqariladi. Shuningdek, mamlakatda boshqa din vakillarining keng faoliyati ham kuzatiladi. Bugungi globallashuv sharoitida dinlararo totuvlik va millatlararo tenglikni ta'minlashda Malayziyaning o'ziga xos tajribasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA

Malayziyaning to'qqiz sultonligi o'z konstitutsiyaviy monarxiyasiga ega bo'lib, monarx tomonidan boshqariladi. To'qqiz sultonlikning har biri odatda Islomiy Kengashni yoki davlatning Islomiy bo'limini

nazorat qiluvchi o'z muftiysiga ega. Federal darajada Islom taraqqiyoti departamentiga bo'ysunuvchi Milliy fatvo kengashi faoliyat olib boradi. Islom taraqqiyoti departamenti monarxlar va federal hududlar hamda monarxlar bo'lmagan shtatlar uchun muftiylarni tayinlaydi.

Mamlakatda shariat sudlari yuqori mavqega ega. Ular shtatlar hukumatlari tomonidan to'liq tartibga solingan uch bosqichli tizimni tashkil etadi: shariat sudlari, shariat oliy sudi, shariat apellyatsiya sudi. Shariat sud departamenti (JKSM) shariat sudlarini muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadigan federal agentlik hisoblanib, 14 nafar muftiydan iborat.

Malayziya Konstitutsiyasining 3-moddasida islom davlat dini sifatida belgilab berilgan. Malayziya oliy hukmdori bir vaqtning o'zida Butun malayziya hamda federal hudud shtatlari Malakka, Pinang, Saravak va Sabah musulmonlari rahbari, boshqa shtat sultonlari o'z hududining musulmonlariga rahbar hisoblanadilar. Bundan tashqari Malayziya shtatlari va hududlarida zamonaviy sud tizimi bilan bir qatorda musulmonlar o'rtasida fuqarolik hamda jinoiy ishlarning ayrim toifalarini ko'rib chiqadigan shariat sudlari ham faoliyat yuritadi (<https://www.globalsecurity.org/military/world/malaysia/religion.html>). Shariat sudlari shtat rahbarlari tomonidan nazorat qilinuvchi uch bosqichlik tizimdan iborat: shariat sudi, shariat oliy sudi, apellyatsiya bo'yicha shariat sudi. Islom huquqi Malayziya huquq-tartibot tizimining bir qismi hisoblanadi. Malayziya qiroli federal hududlardagi Islom ishlari vazirining taklifiga binoan va Majlis bilan kelishilgan holda Oliy shariat sudiga 10 yil davomida quyi shariat sudining qozisi yoki davlatning ro'yxatga olish idoralari yoki shariat prokurorlari bo'lgan Malayziya fuqarolari orasidan qozilarni tayinlashi mumkin. Islom huquqini yaxshi biladigan shaxslar oliy shariat mahkamasining qozisi etib tayinlanish ehtimoli mavjud. Quyi shariat sudlarining sudyalari Malayziya qiroli tomonidan, bosh shariat qozisining tavsiyasiga ko'ra, Malayziyada istiqomat qiluvchi musulmon fuqarolarning keng qatlamidan ham tayinlanishi mumkin.

Shariat sudlari ajrashish, nomusulmonlar bilan nikohdan o'tish, boshqa dinga o'tish, bolalarga vasiylik qilish va shu kabi fuqarolik ishlarini ko'radi. Ular, shuningdek, uch yilgacha qamoq yoki olti darragacha bo'lgan jismoniy jazo bilan jazolanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar bo'yicha jinoiy ishlarni ko'rib chiqadilar. Malayziyadagi shariat sudlari

Annotatsiya. XX asr boshida xalqaro munosabatlarda dinning o'rni iqtisod va siyosatdek muhim hisoblanmagan bo'lsa-da, dunyoda yuzaga kelayotgan nizo va kelishmovchiliklar jahon hamjamiyatiga diniy omilning muhim ekani, bu omil chegara bilmaslighi, muayyan davlat hududida qolmasligini takror eslatmoqda. Dinga bo'lgan munosabat XXI asrga kelib tubdan o'zgardi. Dinga shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi, jahon hamjamiyatining siyosiy tizimida kelishuvga erishishdagi muhim omil sifatida qarala boshlandi. Maqolada ko'rib chiqilgan Malayziyada diniy va dunyoviy muvozanatni saqlashda davlatning o'rni masalasi alohida ahamiyatga ega. Mintaqalarda din niqobidagi tahdidlar, dinlararo va millatlararo murosasizlik avj olayotgan bir davrda, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi musulmon mamlakat sifatida hududida turli din va millat vakillari uchun tinchlik sharoitini yaratib berayotgani nizoli hududlar uchun namuna sifatida keltirish muhim. Maqolada Malayziyada davlat va din munosabatlarini ta'minlashdagi tajribalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Malayziya, sultonlik, shariat sud departamenti, Malayziya milliy fronti, Malayziya Islom taraqqiyoti departamenti, Malayziya Islom Ta'limi Instituti, Malayziya Milliy fatvo kengashi, Mahatir Muhammad, «Bangsa», «Agama», «Negara» (Irq, din, millat).

Abstract. Although the role of religion in international relations was not considered as important as economy and politics at the beginning of the 20th century, the conflicts and disagreements arising in the world under the guise of different religions repeatedly remind the world community that the religious factor is important, that this factor knows no borders and does not stay in the territory of a particular country. The negative attitude towards religion in the 20th century has changed radically by the 21st century. Religion began to be considered as a link between an individual and society, an important factor in reaching an agreement in the political system of the world community. The issue of the role of the state in maintaining religious and secular balance in Malaysia considered in the article is of particular importance. At a time when religious threats and inter-religious and inter-ethnic intolerance are on the rise in the regions, it is important to set an example for the conflict regions as a Muslim country in the Southeast Asian region, which creates peaceful conditions for representatives of different religions and nationalities. The article analyzes the experiences of maintaining relations between the state and religion in Malaysia.

Keywords: Malaysia, Sultanate, Department of Shariah Court, National Front of Malaysia, Department of Islamic Development of Malaysia, Institute of Islamic Education of Malaysia, National Fatwa Council of Malaysia, Mahathir Mohamad, «Bangsa», «Agama», «Negara» (race, religion, nation).

Аннотация. Хотя в начале XX века роль религии в международных отношениях не считалась такой важной, как экономика и политика, конфликты и разногласия, возникающие в мире под прикрытием различных религий, неоднократно напоминают мировому сообществу о важности религиозного фактора, что этот фактор не знает границ и не ограничивается территорией отдельной страны. Негативное отношение к религии в XX веке радикально изменилось к XXI веку. Религия стала рассматриваться как связующее звено между личностью и обществом, важный фактор достижения согласия в политической системе мирового сообщества. Рассматриваемый в статье вопрос о роли государства в поддержании религиозного и светского баланса в Малайзии имеет особое значение. В условиях, когда в регионах растут религиозные угрозы, межрелигиозная и межэтническая нетерпимость, важно подавать пример конфликтным регионам как мусульманская страна Юго-Восточной Азии, создающая мирные условия для представителей разных религий и национальностей. В статье анализируется опыт поддержания отношений между государством и религией в Малайзии.

Ключевые слова: Малайзия, султанат, Департамент шариатского суда, Национальный фронт Малайзии, Департамент исламского развития Малайзии, Институт исламского образования Малайзии, Национальный совет фетв Малайзии, Махатхир Мохаммад, «Bangsa», «Agama», «Negara» (раса, религия, нация).

jamoat xarakteridan ko'ra ko'proq davlat muassasasi xarakterga ega.

Shariat sudlarida nizolarni mediatorlar ishtirokida sudgacha hal qilishga ruxsat berilgan. Federal hududlarning shariat sudlarida fuqarolik protsessual qoidalari majburiyatni nazarda tutadi, taraflar ishni sudda ko'rib chiqilgunga qadar mediator ishtirokida ko'rishlari kerak. Ajralish to'g'risidagi ishlardan

tashqari barcha fuqarolik nizolari mediatsiyaga topshirilishi mumkin. Arbitraj ajralish holatlarida tayinlanadi. Ajralish to'g'risidagi nizoda hakamlar er va xotinning oila vakillari hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, 2000-yilning dekabridan boshlab federal hukumat shariat sudlari yurisdiksiyasidan oilaviy huquqni chiqardi. Boshqa din vakillariga milliy xavfsizlikka xavf solmagan

va jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir etmagan holda o'z dinlariga e'tiqod qilishiga ruxsat beriladi. Mamlakatning tub aholisi hisoblangan bumiputra deb nomlangan aholi qatlamining juda ozchiligi animizmga, asosiy qismi esa islom diniga e'tiqod qiladilar.

1970-yillardan boshlab mamlakatda etnik qarama-qarshiliklarning o'sishiga zamin yaratgan radikal islom kayfiyati paydo bo'la boshladi. 1978-yilda ekstremistlar hinduiylik ibodatxonasiga hujum uyushtirdilar. 1995-yilda Malayziya hududida «al-Jama'a al-Islamiya» terrorchi tashkilotining 1998-2001-yillarda qator terrorchilik harakatlarini amalga oshirgan «Kumpulan Mujahidin Malayziya» bo'linmasi tashkil etildi.

Malayziyada rasman qirqdan ortiq rasmiy ro'yxatdan o'tgan siyosiy partiyalar mavjud. Partiyalar orasida Butunmalayziya islom partiyasi (Parti Islam Se-Malaysia) ham mavjud. Demak, Malayziyada hukumat diniy mafkura asosida siyosiy partiyalarga faoliyat yuritishga to'sqinlik qilmaydi. Buning natijasida, Malay milliy fronti, yagona va uyg'un millat barpo etish, vijdon erkinligi tamoyillariga amal qilgan holda islomning mavqeyini rasmiy din sifatida mustahkamlash va qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan. Milliy front tuzilishiga 1946-yilda tashkil etilgan Birlashgan malay milliy tashkiloti asos bo'ldi. Ushbu partiyaning asosiy maqsadi, konstitutsion monarxiya va demokratik boshqaruv tamoyillarini saqlash, islomni rasmiy din sifatida mustahkamlash, malay madaniyati va malay tilini rivojlantirish hamda jamoalararo konsensusni saqlagan holda yagona Malayziya xalqini shakllantirish bilan bir qatorda radikal islomga qarshi hisoblanadi.

Butun mamlakat bo'ylab faoliyat yurituvchi yuqorida nomlari zikr etilgan tashkilotlardan tashqari ayrim shtatlarda mamlakatning turli sohalarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan holda faoliyat yurituvchi qator partiya hamda harakatlar mavjud.

Shunday partiyalardan biri 1951-yilda tashkil etilgan Butunmalayziya islom partiyasi (Parti Islam Se-Malaysia)dir. 1970-yilning oxirida ushbu partiya muxolifat holatiga o'tdi, 1999-yilga kelib esa muxolifatning boshiga o'tdi. Partiya o'z oldiga islomiy davlat qurish, Konstitutsiyani Qur'on va sunna tamoyillari asosida shakllantirishni maqsad qilgan.

1999-yilda Malayziya Xalq adolati partiyasi (Parti Keadilan Rakyat) tashkil etilgan bo'lib, o'zini etnik va diniy chegaralarni yo'q qilishga qaratilgan

islohotlarning muxolifatchisi deb hisoblaydi, ular demokratlashtirish va liberallashtirishga erishish tarafdoridir.

Umuman olganda, Malayziyaning partiya tizimi yetarli darajada barqaror. Malayziyada siyosiy jarayonlar va siyosiy tizimning rivojlanishiga dinning yetarli darajada ta'siri seziladi. Shu o'rinda, rasmiy va norasmiy mavqega ega bo'lgan islomiy diniy tashkilotlar esa siyosiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan. 1968-yilda hukmdorlar (sultonlar) tashabbusi bilan bosh vazir huzurida Islom ishlari bo'yicha bo'lim tashkil etildi – hozirda bo'lim boshlig'i vazirlik portfeliga ega. 1970-yillardan boshlab mamlakatda radikal islom kayfiyatlar kuchaya boshlaydi, bu, albatta, etnik qarama-qarshiliklarga zamin yaratib, boshqa konfessiyalar vakillari bilan to'qnashuvlarga olib kelgan. Shuningdek, Malayziya hududida «al-Jama'a al-Islamiya» terrorchi tashkilotining «Kumpulan Mujahidin Malayziya» bo'linmasining faoliyat yuritishi mamlakatning terrorizm bilan to'qnashishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari Malakka bo'g'ozidagi talonchiliklar ham xavfsizlikka tahdid sifatida ko'riladi.

1969-yilda Malayziya hukmdorlari konferensiyasi Malayziyaning o'sib borayotgan islom davlati sifatidagi mavqeyi va xalqaro darajadagi mavqeyini mustahkamlashga mos ravishda, bu mamlakatda musulmonlarning taraqqiyoti va rivojini harakatga keltiruvchi kuch hamda tashkilotga ehtiyoj borligi haqida qaror qabul qildi.

Ana shu haqiqatni anglab, islomiy e'tiqod va ta'limotlarning sofligini saqlash maqsadida Malayziya Islom diniy ishlar bo'yicha Milliy kengashi (Majlis Kebangsaan Bagi Hal Ehwal Ugama Islam Malaysia – MKI) qoshida kotibiyat tashkil etildi. Kotibiyat keyinchalik Diniy bo'lim, Bosh vazir departamenti sifatida ishlab chiqilgan va keyinchalik qayta Islom ishlari bo'limi (Bahagian Hal Ehwal Islom – BAHEIS)ga o'zgartirilgan.

1979-yil Eron revolyutsiyasi ta'sirida Malayziyada «islomning uyg'onish» to'liqini yuzaga keladi. Islom renessans fronti (Islamic Renaissance Front) (irfront.net/about-irf/introduction/) direktori doktor Ahmad Faruk Musoning fikriga ko'ra, 1980-yillarda Malayziyada «sof islom»ga qaytish harakatlari juda kuchayadi. Aynan o'sha paytda ba'zi siyosiy yetakchilar ushbu g'oyalarni tarqatish orqali o'z mavqelarini kuchaytirishni maqsad qilganlar. O'sib kelayotgan radikal g'oyalar ta'sirini bostirish, ularni tartibga solish hamda mamlakatda islom dinining o'sib borayotgan taraqqiyoti va rivojiga mos

ravishda Malayziya hukumati tomonidan BAHEIS hokimiyati hamda rolini o'z zimmasiga olgan holda 1997-yil 1-yanvarda Mahathir Muhammad tashabbusi bilan mintaqaviy bo'linmalarga ega Malayziya Islom taraqqiyoti departamenti (Jabatan Kemajuan Islam Malaysia – JAKIM – <https://www.islam.gov.my>) hamda Selangor shtati islom diniy departamenti (Jabatan Agama Islam Selangor – JAIS) tashkil etildi va ularga fatvo chiqarish huquqi berildi. Jamiyatning deyarli barcha sohalarida ko'plab funksiyalardan tashqari Mahathir Muhammadning g'oyasiga muvofiq, JAKIMning tashkil etilishi Malayziyani ishlab chiqarish va halol mahsulotlarni sertifikatlash sohasida xalqaro (islomiy) bozorga olib kirishga hissa qo'shishi kerak edi. To'rtinchi «taraqqiyot rejasi»da islom dinining mamlakat taraqqiyotidagi yetakchi roli e'lon qilingan. Shuningdek, Malayziya JAKIM boshchiligidagi islomiy moliyalashtirish va mahsulotlarni «halol» belgisi ostida standartlashtirish yo'lida rivojlana boshladi. Shu bilan birga, JAKIM vakolati kengayib, vaqt o'tishi bilan u diniy maktablar tizimini ta'minlash, nikohni qayd etish va hatto «axloq politsiyasi» funksiyalarini o'z ichiga oldi. Tashkilotning mazmuni ham sezilarli darajada o'sdi – departamentning 2021-yildagi yillik byudjeti 1,4 milliard ringgit (334,5 million dollar)ni tashkil etdi.

Malayziya Islom taraqqiyoti departamenti hamda Bosh vazir departamenti islom ishlarini boshqarish va mamlakat musulmonlari rivojida mamlakatda islom ishlarini rivojlantirish siyosatini shakllantirish;

- islom dini soffligini saqlash;
- zarur qonun-qoidalarni ishlab chiqish va muzokaralar olib borish, shuningdek, musulmonlar muammolarini hal qilishda mavjud qonunlar va boshqaruvning qo'llanilishini baholash hamda muvofiqlashtirishda yordam berish;
- mamlakat boshqaruvida islomni tan olish va musulmonlar rivojiga hissa qo'shuvchi dasturlarni joriy etish;
- mamlakatda islomga oid huquqiy masalalarni tartibga solish va muvofiqlashtirish;
- mamlakatda islom diniga oid dasturlarni baholash;
- islomiy ishlar bo'yicha ma'lumot yig'uvchi va tarqatuvchi axborot markazi sifatida faoliyat yuritish;
- mintaqaviy va xalqaro hamkorlik orqali jamiyatni rivojlantirish borasida sa'y-harakatlarni amalga oshirish kabi muhim funksiyalarni bajaradi (www.islam.gov.my/ms/).

Departament siyosat, amaliyot va boshqaruv kabi asosiy uch sektordan iborat:

siyosat sektori islom taraqqiyoti, tadqiqot, shariat ijrosi prokuratura boshqarmasini muvofiqlashtirish, tashqi ishlar va aloqalar, halol boshqaruv, shariat kabi olti bo'limdan iborat;

amaliyot sektori da'vat, oila, jamiyat va jamoa, nashr, radioeshittirish (1994-yil 1-iyun kuni Bosh vazir departamentining Islom ishlari bo'limiga topshirilgunga qadar Radio Televisyen Malaysia (RTM) davlat teleradiokompaniyasining Radio va televideniye davlat bo'linmalari sifatida tanilgan. U RTM radio va televideniye kanallari uchun diniy ko'rsatuvlar tayyorlashga mas'ul. Uning radio kanali – Salam FM 2009-yil 15-fevralda tashkil etilgan va Kuala-Lumpurning Angkasapuri shahridagi Wisma radiosida soat 23:00 dan 8:00 gacha Asik FM bilan bir xil chastotada efirga uzatiladi) hamda ta'lim bo'limlaridan iborat;

menejment sektori personalni boshqarish, moliya bo'limi, axborot boshqaruvi, boshqaruv xizmatlari bo'limlaridan iborat.

Quyidagi tashkilotlar bevosita JAKIM bosh direktoriga bo'ysunadi:

Malayziya Islom Ta'limi Instituti (Malayziya Instituti Latihan Islam Malaysia – ILIM), yuridik bo'lim, Malayziya Halol kengashi kotibi, Darul Qur'an, Saravak Islomiy mahorat instituti (Institut Kemahiran Islam Malaysia Sarawak – IKMAS), Sabah islomshunoslik va da'vat instituti (Institut Pengajian Islam dan Dakwah Sabah – IPDAS), JAKIM Sabah va Saravak filiali, korporativ aloqalar bo'limi va hamjihatlik guruhi.

JAKIM targ'ibot bo'limiga tegishli Negara, Putra va Tuanku Mizan Zaynal Abidin masjidlari ham faoliyat yuritadi.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, JAKIMning tashkil etilishi ortida mamlakatda islom dini va u bilan bog'liq urf-odatlarini saqlab qolish hamda rivojlantirish maqsad qilingan bo'lsa-da, tashkilot Malayziya konstitutsiyasi tomonidan taqiqlanganini da'vo qilgan ko'plab guruhlar tanqidiga ham uchradi. Xususan, mamlakat konstitutsiyasining 38-moddasiga ko'ra, Mahathir Muhammad tomonida himoya qilingan va hukumatni islom ta'limotlariga moslashtirishni maqsad qilgan JAKIMni tashkil etish Hukumat konferensiyasi vakolatiga kirmasligi da'vo qilingan. Mahathir Muhammad bayonotini Bosh vazir huzuridagi Din ishlari vaziri Mujohid Yusof Rava qo'llab-quvvatlab, JAKIM mamlakatda islom diniga bo'lgan ehtiyojni qondirish, shuningdek, islomiy masalalarni hal etishda byudjetni boshqarish uchun

tashkil etilganini ta'kidlagan. Departament bosh direktori Abdulaziz Jusoh hisoblanadi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan tashkilotlar o'z faoliyati davomida bir necha marotaba hukumat vakillari sunniylik yo'nalishi, xususan, shofeiylilik mazhabini mamlakatda yagona rasmiy yo'nalish sifatida tan olinishi lozimligi haqidagi taklif bilan chiqqanlar. Bundan tashqari mamlakatida shialik ta'limotini targ'ib etish va yoyish taqiqlangan, natijada esa shia musulmonlari ko'p marotaba ta'qibga uchraganlar.

Hukumatning shialarga qarshi harakatlarining qonuniy asosi 1960-yildagi Ichki xavfsizlik to'g'risidagi qonunda o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, ayblanuvchi Malayziya xavfsizligiga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar sodir etgani uchun hibsga olish muddati 60 kundan ikki yilgacha uzaytirilishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Malayziya islom taraqqiyoti departamenti huzuridagi Milliy fatvo kengashining 1996-yil 5-maydagi qaroriga ko'ra, shialikka e'tiqod qilinishi taqiqlanmasa-da targ'iboti taqiqlangan hamda islomning asl ta'limotidan og'gan yo'nalishlar qatoriga kiritilgan. Malayziyaning 14 shtatidan 10 tasi avvalboshidanoq fatvoga amal qildi, Kedah shtati esa 2013-yilda Sultonning qat'iy talabidan so'ng ushbu fatvoga amal qila boshladi (Kirichenko V.P., 2019:86). Malayziyadagi musulmonlarga sunniylikka ergashishga ruxsat berilgani hamda matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalarida shialikni targ'ib qilish man etilgani e'lon qilindi. Fatvoga amal qilgan holda Malayziya rasmiylari aksariyat hollarda shialar tomonida o'tkaziladigan diniy yig'inlarning o'tkazilishiga qarshilik qiladilar, ularga uylarida diniy kitoblarni saqlashga ruxsat bermaydilar. Aynan shu fatvodan kelib chiqqan holda mamlakatda faqatgina shofeiyl mazhabiga amal qilish talab etiladi va ushbu ta'limotga zid bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lish, nashr etish va tarqatish taqiqlanadi. Umumiy ma'noda, bugungi kunda Malayziyada qabul qilingan shofeiylilik mazhabiga to'g'ri kelmaydigan amal va xatti-harakatlar malaylar birligiga rahna soluvchi bid'at sifatida qabul qilinadi.

Shialarga qarshi fatvo e'lon qilingandan so'ng Malayziya parlamentidagi yirik siyosiy partiya hisoblangan Birlashgan Malay milliy tashkiloti (Pertubuhan Kebangsaan Melayu Bersatu) konstitutsiyada rasmiy maqomi belgilangan islomning yagona tarmog'i sunniylik bo'lishi kerakligi haqidagi qonunni ilgari surishga harakat qilishini ma'lum qildi. Malayziya ommaviy axborot vositalari mam-

lakatda shialikka qarshi targ'ibot ishlarini olib boradi. Televideniyaedagi diniy dasturlarda shialar «qon to'kish va jangarilar tarafdori» sifatida ko'rsatiladi. Sunniy ulamolar shialarga nisbatan bunday munosabatni qoralab, musulmonlarni birlikka chaqirdilar, biroq ular shialarga nisbatan kamsitishni to'xtata olmadilar.

2010-yilning dekabrda eronlik, indoneziyalik va pokistonlik 200 dan ortiq shia hibsga olingan hamda ular islom qonunlarini buzganlikda ayblanganlar (<https://tribune.com>). 2013-yil avgust oyining boshida ikki nafar shia, sentyabrda esa yana olti nafar shia hibsga olingan. Perak shtati Islom diniy boshqarmasi huquq-tartibot idoralari rahbari Ahmad Nizom Amiruddin shialarni yo'q qilish kerakligini ta'kidlaydi (Kirichenko V.P., 2019:87). 2014-yilning mart oyida Perak hukumati shialar Ali (r.a.)ning qizlari, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning nabirasi Zaynabning tug'ilgan kunini nishonlayotgan bir vaqtda 100 dan ortiq shialarni hibsga oldi (www.mei.edu). 2019-yilda Malayziya politsiyasi Selangor shtatida ham Ashura bayrami chog'ida o'nlab shia musulmonlarini hibsga oldi (www.latestly.com). Bu kabi harakatlar Penang shtatida ham amalga oshirilgan. Penang muftiysi Van Salim Van Mohd Nur, shialarga o'z diniy e'tiqodlariga amal qilish erkinligi berilishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, shia musulmonlari o'z marosimlarini yopiq muhitda o'tkazishlari lozim, bu kabi marosimlarning ko'chada sunniy musulmonlar orasida o'tkazilishi musulmonlar birligiga putur yetkazishi mumkin (www.freemalaysiatoday.com).

Malayziyani islom davlati deb nomlash Malayziya Konstitutsiyasining 3-moddasiga zid keladi, unga ko'ra, mamlakatda boshqaruv dunyoviy tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi, islom dini esa aynan shu din bilan bog'liq marosimlarni o'tkazishda «davlat dini» sifatida namoyon bo'ladi. Istisno tariqasida 11 (4)-moddada ayrim shtat qonunchiligida o'rnatilgan tartibda yoki butun mamlakatda diniy targ'ibot olib borish taqiqlangan (Federal Constitution. 2010:20).

Malayziya Konstitutsiyasiga ko'ra, milliylik ham kishining e'tiqodidan kelib chiqqan holda belgilanadi, ya'ni malay sifatida tan olinish uchun shaxs islom diniga e'tiqod qilishi va musulmon bo'lishi lozim. O'z navbatida, bu sunniylik yo'nalishidagi musulmonlarni boshqa dinga da'vat etuvchi xristian va shia yo'nalishidagi musulmonlar o'rtasidagi munosabatlarning taranglashishiga sabab bo'lmoqda. Bu yerda muammo faqat diniy birlikda

emas, balki aholining musulmon-malay qismiga taalluqli bo'lgan milliy birlikda namoyon bo'ladi, aynan shunda milliylik va islom dinining qo'shilib ketishi namoyon bo'ladi. Ammo, mustaqillikning ilk yillarida malay siyosatchilari tomonidan milliylik faktori inobatga olingan bo'lsa, Eron revolyutsiyasi va jamiyatda islomlashuv jarayonining kuchayishi natijasida din omili ustunlikka erisha boshladi.

NATIJA

2005-yilning noyabridan AQSH Davlat departamentining xalqaro diniy erkinlik haqidagi hisobotida Malayziya hukumati islom targ'ibotiga qarshi ekani, bu esa, o'z navbatida, milliy xavfsizlikka tahdid solayotgani haqida ma'lumotlar keltirilgan (www.state.gov). Malayziya islom taraqqiyot departamenti sayti ma'lumotlariga ko'ra, 56 turdagi ta'limot, xususan, shialik ta'limotini targ'ib etish taqiqlangan. Parallel tarzda hukumat kamchilikni tashkil etuvchi din vakillari monitoringini ham olib boradi. Ushbu holatni 2012-yilda AQSH Davlat departamenti hisobotida ham ko'rish mumkin (www.state.gov). Ichki ishlar vaziri Ahmad Zohid Homidiy shialik milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi yo'nalish ekanini inobatga olib, uni mamlakat hududida cheklashni taklif etgan. 2013-yilda Ahmad Zohid Homidiy Butunmalayziya islom partiyasi (Parti Islam Se-Malaysia) raisi o'rinbosari Muhammad Sabuni shia yo'nalishiga mansub ekanlikda ayblagan (www.malaysiakini.com).

Bu jarayonlar to'loqinida davlatning mamlakatda diniy-dunyoviy muvozanatni saqlab qolish, davlatda dinlararo barqarorlik va totuvlikni saqlab qolishda o'rni katta bo'lgan. Umuman olganda hukumat, islom va musulmonlar mavqeyini qo'llab-quvvatlaydilar. 1998-yili Penangda musulmonlar va hindular o'rtasida sodir bo'lgan to'qnashuvdan so'ng mamlakatda mavjud bo'lgan barcha diniy tashkilotlarning retsenziyalarni tekshirishga tushishdi. 2006-yili mahalliy hokimiyatlar retsenziyaga ega bo'lmagan bir nechta hindu ibodatxonalarni buzib yubordi.

2006-yil davomida yana bir nechta hinduistik ibodatxonalari buzib tashlandi (www.malaysiakini.com). 2000-yillargacha Davlat tomonidan muvozanatni saqlab qolish harakatlari kuzatilgan bo'lsa-da, hozir islomlashish siyosatining tobora kuchayishi jarayonlarni ko'plab musulmon bo'lmagan malayziyaliklarni qo'rqitmoqda.

Kuala-Lumpurda 2006-yil 11-mayda hokimiyat vakillari 60 yillik hinduistik ibodatxonasini buzib tashladilar, holat bo'yicha Malayziya Bosh vaziriga arznoma ijobiy javob bilan qondirilmadi.

Avtoritarizm tizimi Malayziyada Mahatir Muhammad hokimiyatigacha ham mavjud bo'lgan, lekin aynan uning davrida mazkur siyosiy jarayon yanada rivojlandi. Siyosiy, diniy va milliy totuvlik bilan tenglashtirish nihoyatda qaltis masala bo'lib turib, millatchilikning haddan oshib ketishiga, bu, o'z navbatida, boshqa millat va elatlar huquqlariga nisbatan tengsizlikka olib keladi.

Davlat tizimi ostida faoliyat yurituvchi huquq tizimini ham inobatga olish kerak. Malayziyadagi huquq tizimi dunyoviy hamda shar'iy huquq tizimiga asoslangan. Federativ hukumat tashqi aloqalar, mudofaa, ichki xavfsizlik va adliya (malaylar o'rtasidagi fuqarolik masalalaridan tashqari yoki islom va an'anaviy huquqqa muvofiq boshqa musulmon hamda tub aholi vakillari uchun), moliya, tijorat, sanoat, aloqa, transport kabi masalalar uchun mas'uldir.

Irqqa mansublik Malayziya siyosatida katta rol o'ynaydi. Shuningdek, Malayziyadagi ko'p siyosiy partiyalar etnik xususiyatga egadir. Hukumatning yangi iqtisodiy siyosati va Rivojlanish milliy siyosati malayziyalik «bumiputera»larning holatini yaxshilash uchun amalga oshirilgan. Mazkur siyosat nomalayziyalik bo'lmishlarga nisbatan malayziyaliklar uchun imtiyozli tizimni joriy etishni nazarda tutadi. Bu imtiyozlar ish bilan ta'minlashda, ta'limda, stipendiya ajratishda, biznes va arzon uy-joylarni olishda qo'llanadi. Irqchilik siyosati ko'p tanqidga uchrab katta e'tirozlarga olib kelgan. Irqchilikka asoslangan siyosatning paydo bo'lishi Buyuk Britaniyadan mustaqil bo'lgan davrdan kuzatiladi. Bu siyosat irqchilik asosidagi uchta partiyaning paydo bo'lishiga olib keldi: Malayziya birlashgan millatlar tashkiloti (UMNO – The United Malays National Organisation – Pertubuhan Kebangsaan Melayu Bersatu), Malayziya Xitoy assotsiatsiyasi – (MCA – Malaysian Chinese Association va Malayziya Hindlar kongressi (MIC – Malaysian Indian Congress).

Bundan tashqari musulmonlarni siyosatga safarbar qilish deb ta'riflangan islomning siyosiylashuvi so'nggi yillarda Malayziya siyosiy hududining asosiy xususiyatiga aylandi. Bu islomlashtirish poygasidagi hukmronlik islom dinidan qonuniylik mavqeyini olishga intiladigan ikkita asosiy siyosiy partiya – UMNO

(Pertubuhan Kebangsaan Melayu Bersatu yoki Birlashgan Malayziya Milliy Tashkiloti) va PAS (Parti Islam Se-Malaysia) oldingi saflarga chiqdi. Malayziyada islomning qayta tiklanishi, Islomiy harakatlar tashkilotlar qatori UMNO-PAS o'zaro munosabatlari esa Malayziya siyosatining olimlari va kuzatuvchilarini eng ko'p hayratga solgan (K.J. Jomo and Ahmad Shabery Cheek., 1992). UMNO-PAS raqobati diniy-siyosiy dialektikasi Malayziyadagi siyosiy islom parametrlarini belgilaydi. U PASni «ekstremistik» islomning «konservativ» tarafdorlari sifatida ko'rsatadi va Malayziyada islom davlatini barpo etish rolini aniqlash uchun kurash haqiqatini inkor etadi. Zamonaviy Malayziyadagi islom UMNOning o'zida ziddiyatlar mavjudligini ko'rsatdi, natijada, PASning o'sib borayotgan mashhurligi ko'zga tashlanmoqda.

Xulosa. Malayziyaning davlat sifatida o'ziga xosligi ancha harakatchan va ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Aholisining aksariyatini musulmonlar tashkil etuvchi davlat sifatida uch ko'rinishda namoyon bo'ladi – faol davlat, mo'tadil islom mamlakati va sunniylik yo'nalishidagi davlat. Ushbu yo'nalishlarning har biri uchun o'ziga xoslikni yaratishga turtki sifatida, birinchi navbatda, ichki siyosiy vaziyat va ko'pchilik musulmonlarning ovozlari uchun kurashdir. So'nggi yigirma yil ichida jamoatchilik kayfiyati nisbatan tez o'zgargani sababli ichki va tashqi siyosat o'ziga xosligini shakllantirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik Malayziya o'ziga xosligining tashqariga prognoz qilingan ko'plab paradokslari hamda qarama-qarshiliklarining paydo bo'lishiga olib keldi. Malayziya multi millatli, multi madaniyatli va ko'p konfessiyali aholiga ega davlat sifatida barcha qatlam uchun tinchlik-totuvlikda yashash hamda ASEAN doirasida mintaqaviy o'ziga xoslikni shakllantirishga erishgan mamlakat sifatida namoyon bo'lishda davom etmoqda.

Malayziyaning Konstitutsiyasi mamlakatning fuqarolar uchun vijdon erkinligini kafolatlasada, ko'pchilikni tashkil etuvchi islom dini tarafdorlariga o'z dinini boshqa millat va elat vakillar o'rtasida targ'ib etishga monelik qilmaydi.

Malayziya konstitutsiyasining 11-moddasida diniy targ'ibot erkinligi kafolatlangan. Biroq, musulmonlar orasida missionerlik faoliyatini olib borish taqiqlangan. Mamlakatda musulmon fuqarolarining o'z dinlarini o'zgartirishlari (murtadlik) rasman taqiqlangan. Murtadlik jinoyat hisoblanib, dindan qaytganlar islomiy reabilitatsiya markazida 6 oylik qamoq jazosini o'taydi.

Murtadlikka undagan yoki musulmonlarni boshqa dinga o'tkazishga uringan kishilar esa 3 yillik qamoq jazosiga yoki 5 ming ringgit (1200\$) jarimaga tortiladi. Mamlakatda nashr qilinadigan xristianlik adabiyotlarida «faqatgina musulmon bo'lmaganlar uchun» degan ibora aks etishi shart qilib qo'yilgan. Ma'lumotlarda, fuqarolar orasida xristianlikni qabul qilganlar mavjudligi qayd qilingan. Biroq, ularning aniq soni, ijtimoiy holati ma'lum emas. Odatda, ular xristianlikni qabul qilganini oshkor qilmasdan, o'zlarini musulmon qilib ko'rsatishda davom etadi.

Malayziyadagi siyosiy jarayonlardagi asosiy joylarni diniy va millatchilik asosidagi partiyalar egallaydi. Shu bilan birga, norasmiy qo'llash asosida mamlakatda turli norasmiy diniy tashkilotlar, shu jumladan, ekstremistik tusga ega bo'lgan guruhlar mavjud. Ularning Malayziyadagi rivoji, asosan, Eron islom revolyutsiyasidan keyingi davrga to'g'ri keladi. Mamlakatda ba'zi siyosiy kuchlarning Malayziyani islom davlatiga aylantirishga urinishlariga qaramay hukumat rahbarlari mo'tadil diniy-dunyoviy muvozanatni saqlab kelishga harakat qilib kelmoqda. Davlatning rivojlanish strategiyasi, asosan, e'lon etilgan shior «Bangsa», «Agama», «Negara» (Irq, din, millat) ostida shakllanib kelmoqda. Davlatni islomlashtirish poygasida, asosan, UMNO va PAS partiyalari faol qatnashmoqda.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Malaysia Religion // <https://www.globalsecurity.org/military/world/malaysia/religion.html> (murojaat sanasi: 21.02.2023).
2. Federal Constitution. Article 3, 11:4. Published by The Commissioner of Law revision, Malaysia 2010. <http://www.malaysiakini.com/news/249247> December 13, 2013.
3. <http://www.malaysiakini.com/news/249247> December 13, 2013.
4. <http://www.state.gov/j/drl/rls/irf/2005/51518.htm>
5. <http://www.state.gov/j/drl/rls/irf/religiousfreedom/#wrapper>
6. irfront.net/about-irf/introduction/ (murojaat sanasi: 20.02.2023).
7. Let Shia Muslims practise faith in private, says Penang mufti // <https://www.freemalaysiatoday.com/category/nation/2019/09/11/let-shia-muslims-practise-faith-inprivate-says-penang-mufti/> (murojaat sanasi: 21.02.2023).
8. Malaysia swoops on 'outlawed' sects, detains 200 Shias // <https://tribune.com.pk/story/92587/malaysia-swoops-on-outlawed-sects-detains-200-shias/> (murojaat sanasi: 21.02.2023).

9. Muharram 2019: Malaysia Detains Dozens of Shiite Muslims in New Crackdown // <https://www.latestly.com/world/muharram-2019-malaysia-detains-dozens-ofshiite-muslims-in-new-crackdown-1182377.html> (murojaat sanasi: 21.02.2023).
10. Salafism and the Persecution of Shi'ites in Malaysia // <http://www.mei.edu/node/16400> (murojaat sanasi: 21.02.2023).
11. See K.J. Jomo and Ahmad Shabery Cheek. «Malaysia's Islamic Movements» in Joel Kahn and Francis Loh Kok Wah (eds), *Fragmented Vision: Culture and Politics in Contemporary Malaysia* (Honolulu: University of Hawaii Press, 1992), for a study on major Islamic movements in Malaysia that have emerged from the Islamic resurgence of the 1970s.
12. www.islam.gov.my/ms/ (murojaat sanasi: 20.02.2023).
13. www.malaysiakini.com Темпл роу – пожалуйста, проявите немного чувствительности (murojaat sanasi: 28.10.2022).
14. Давление на многоконфессиональную Малайзию, BBC (murojaat sanasi: 28.10.2022).
15. Кириченко В.П. Шиитская община Малайзии // <https://cyberleninka.ru/article/n/shiitskaya-obschina-malayzii> – С. 87. DOI: 10.31249/rimm/2019.04.05.
16. Кириченко В.П. Шиитская община Малайзии. // <https://cyberleninka.ru/article/n/shiitskaya-obschina-malayzii> – Стр. 86. DOI: 10.31249/rimm/2019.04.05.
10. Salafism and the Persecution of Shi'ites in Malaysia // <http://www.mei.edu/node/16400> (Reference date: 21.02.2023).
11. See K.J. Jomo and Ahmad Shabery Cheek. «Malaysia's Islamic Movements» in Joel Kahn and Francis Loh Kok Wah (eds), *Fragmented Vision: Culture and Politics in Contemporary Malaysia* (Honolulu: University of Hawaii Press, 1992), for a study on major Islamic movements in Malaysia that have emerged from the Islamic resurgence of the 1970s.
12. www.islam.gov.my/ms/ (Reference date: 20.02.2023).
13. www.malaysiakini.com Templ rou – пожалуйста, proyavite nemnogo chuvstvitelnosti (Reference date: 28.10.2022).
14. Davleniye na mnogokonfessionalnuyu Malayziyu, BBC (Reference date: 28.10.2022).
15. Kirichenko V.P. Shiitskaya obshina Malayzii // <https://cyberleninka.ru/article/n/shiitskaya-obschina-malayzii> – P. 87. DOI: 10.31249/rimm/2019.04.05.
16. Kirichenko V.P. Shiitskaya obshina Malayzii. // <https://cyberleninka.ru/article/n/shiitskaya-obschina-malayzii> – P. 86. DOI: 10.31249/rimm/2019.04.05.

REFERENCES

1. Malaysia Religion // <https://www.globalsecurity.org/military/world/malaysia/religion.html> (Reference date: 21.02.2023).
2. Federal Constitution. Article 3, 11:4. Published by The Commissioner of Law revision, Malaysia 2010.
3. <http://www.malaysiakini.com/news/249247> December 13, 2013.
4. <http://www.state.gov/j/drl/rls/irf/2005/51518.htm>
5. <http://www.state.gov/j/drl/rls/irf/religiousfreedom/#wrapper>.
6. irfront.net/about-irf/introduction/ (Reference date: 20.02.2023).
7. Let Shia Muslims practise faith in private, says Penang mufti // <https://www.freemalaysiatoday.com/category/nation/2019/09/11/let-shia-muslims-practise-faith-inprivate-says-penang-mufti/> (Reference date: 21.02.2023).
8. Malaysia swoops on 'outlawed' sects, detains 200 Shias // <https://tribune.com.pk/story/92587/malaysia-swoops-on-outlawed-sects-detains-200-shias/> (Reference date: 21.02.2023.)
9. Muharram 2019: Malaysia Detains Dozens of Shiite Muslims in New Crackdown // <https://www.latestly.com/world/muharram-2019-malaysia-detains-dozens-ofshiite-muslims-in-new-crackdown-1182377.html> (Reference date: 21.02.2023).

